



**BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**  
*2021- YIL YANVAR-FEVRAL*

**Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 65-220-83-06**

## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-fevral)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2573,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 84,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (94,1 %)ni tashkil etdi.



*B*–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, *C*–Ishlab chiqaradigan sanoat *D*–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, *E*–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 28,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 14,1 % ga hamda elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning - 21,2 % ga pasayishi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,7 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


### Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oltinugurt , t.	243,0	161,0	-82,0
Shagʻal , t.	7131,0	0	-7131,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, mln. soʻm.	30179,8	15618,1	-14561,7

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2021- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2423,0 mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-fevral oyida – 0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,5 % (1,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 48,8 % (62,1 %) va quyi texnologiyalisi – 49,6 % (36,8 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,3 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 64,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 30,5 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 106,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 3,9 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 89,9 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 158,7 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 21,1 % ga o'sgan), 3,8 ming tonna kalava ip (19,3 %), 14,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,1 %), 232,8 ming. litr aroq mahsulotlari (22,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020- yil yanvar-fevral</b>	<b>2021- yil yanvar-fevral</b>	<b>Farqi +/-</b>
Mazut, ming t.	13,5	18,5	5,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2682,0	1774,0	-908,0
Paxta, tolasi, t.	25142,0	28819,0	3677,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	14149,5	14865,4	715,9
Quyish uchun tayyor beton, t.	2713,7	629,2	-2084,5
Avtomobil benzini, ming t.	131,1	158,7	27,6
Paxta chigiti, t.	41277,0	45445,0	4168,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	1688,0	6402,1	4714,1
Dizel yoqilg'isi, ming t.	131,2	53,4	-77,8


**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2021- yil yanvar-fevral)



**To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**  
(2021- yil yanvar-fevral)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,5 % ni, fizik hajm indeksi 6,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 785,3 mlrd so'mni tashkil etd.



**Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**  
(2021- yil yanvar-fevral)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 393,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.






## **Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish**

*(2021- yil yanvar-fevral)*


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 142,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 101,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



## **Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati**


*(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar-fevral oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 126,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 51,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 41,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-fevral oyida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,5 % ga oshganligi kuzatildi.


### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1,1	1,1	0,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	281,4	295,4	14,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1686,0	3065,1	1379,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	61,7	81,3	19,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 31,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1007,9 mlrd so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 8,1 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,9 % (2020- yil yanvar-fevral oylarida 2,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 23,9 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 18,5 % ni, G'ijduvon tumani 12,3% Kogon tumani 7,7 % ni, hamda Jondor tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (118,0 %), Peshku (115,4 %), Romitan (111,6 %), tumanlarida hamda Kogon (109,8%) shahrida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1007,9	100,0	108,1
<b>Buxoro viloyati</b>			
	17,6	1,8	102,8
<b>Olot.</b>			
	24,4	2,4	115,4
<b>Peshku</b>			
	50,8	5,0	86,2
<b>Buxoro</b>			
	39,9	4,0	111,6
<b>Romitan</b>			
	41,1	4,1	102,7
<b>Vobkent</b>			
	60,7	6,0	104,2
<b>Jondor</b>			
	123,9	12,3	108,6
<b>G'ijduvon</b>			
	42,7	4,2	100,5
<b>Shofirkon</b>			
	77,3	7,7	111,4
<b>Kogon</b>			
	186,1	18,5	108,2
<b>Buxoro sh.</b>			
	47,7	4,7	96,9
<b>Qorako'l</b>			
	54,6	5,4	109,8
<b>Kogon sh.</b>			
	241,1	23,9	118,0
<b>Qorovulbozor</b>			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 35,6 % ni, shuningdek Buxoro shahri 15,5 % ni, G'ijduvon tumani 12,2 % ni hamda Kogon tumani 9,1%, Buxoro tumani 4,5% ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Shofirkon timani (132,7 %), Peshku tumani (130,9%), Qorovulbozor tumani (118,0 %) ,hamda Kogon shahrida (117,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>			
	669,5	100,0	108,5			
<b>Buxoro viloyati</b>						
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	9,2	1,4	103,6		12,7	1,9
<b>Olot</b>				<b>Peshku</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	29,8	4,5	84,2		22,6	3,4
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	26,8	4,0	101,0		24,9	3,7
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	81,9	12,2	118,6		24,6	3,7
<b>G'ijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	61,1	9,1	98,6		104,1	15,5
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>
	17,7	2,6	90,7		16,1	2,4
<b>Qorako'l</b>				<b>Kogon sh.</b>		
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>			
	238,0	35,6	118,0			
<b>Qorovulbozor</b>						

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 24,2 % ni,

shuningdek, G'ijduvon tumani 12,4 % ni, Kogon shahrida esa 11,4 % ni, Jondor 10,6 tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (218,8 %) , Buxoro shahrida (130,3 %) hamda Qorovulbozor tumaniga (118,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	338,4	100,0	107,3				
<b>Buxoro viloyati</b>							
	8,4	2,5	101,8		11,7	3,5	102,3
<b>Olot.</b>				<b>Peshku</b>			
	21,0	6,2	89,1		17,3	5,1	115,6
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>			
	14,3	4,2	106,1		35,8	10,6	99,9
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>			
	42,0	12,4	93,3		18,1	5,3	75,5
<b>G'ijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>			
	16,2	4,8	218,8		82,0	24,2	130,3
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>			
	30,0	8,9	100,9		38,5	11,4	106,9
<b>Qorako'l</b>				<b>Kogon sh.</b>			
	3,1	0,9	118,1				
<b>Qorovulbozor</b>							



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 234,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

### Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


2021- yil yanvar-fevral oylarida

	Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	2573,9	100,0	84,1				
<b>Buxoro viloyati *</b>							
	47,7	1,8	100,7		79,6	3,1	100,4
<b>Olot</b>				<b>Peshku</b>			
	90,2	3,5	94,8		106,4	4,1	104,1
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>			
	43,9	1,7	104,3		115,5	4,5	100,9
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>			
	257,8	10,0	104,8		110,9	4,3	102,0
<b>Gʻijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>			
	100,8	3,9	109,1		357,0	13,9	108,1
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>			
	87,0	3,4	100,9		138,3	5,4	95,4
<b>Qorakoʻl</b>				<b>Kogon sh.</b>			
	1038,8	40,4	68,3				
<b>Qorovulbozor</b>							

\* Hududlar boʻyicha taqsimlanmagan maʼlumotlarni qoʻshgan holda



**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 109,1 %), Buxoro shahrida (108,1 %), G'ijduvon (104,8 %) va Vobkent (104,3 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.


Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning

yanvar-fevral oylariga nisbatan 68,3 %), Buxoro (94,8 %) tumanlarida va Kogon shahrida (95,4 %) ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

### **Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,4 % i), Buxoro shahri (13,9 %), G'ijduvon tumani (10,0 %), hamda Kogon shahar (5,4 %), Jondor (4,5%), Shofirkon (4,3%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (1,7 %) hamda Olot (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (56455,2 ming so'm) va Kogon shahri (2255,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1329,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 520,7 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 13103,1 ming

soʻmni, Kogon tumanida – 981,9 ming soʻmni, Kogon shahrida – 890,0 ming soʻmni, Buxoro shahrida 662,8 ming soʻmni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari  
va isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yil yanvar-fevral, ming soʻm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	1329,9	520,7
<b>Buxoro viloyati</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	479,6	177,3		644,7	197,2
<b>Olot</b>			<b>Peshku</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	538,6	303,3		746,4	279,8
<b>Buxoro</b>			<b>Romitan</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	312,9	293,0		659,1	346,1
<b>Vobkent</b>			<b>Jondor</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	844,5	405,9		623,4	240,0
<b>Gʻijduvon</b>			<b>Shofirkon</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	1281,3	981,9		1271,4	662,8
<b>Kogon</b>			<b>Buxoro sh.</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	529,1	290,4		2255,6	890,0
<b>Qorakoʻl</b>			<b>Kogon sh.</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Isteʼmol mahsulotlari</b>
	56455,2	13103,1
<b>Qorovulbozor</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yil yanvar-fevral, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 737,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (95,4 %), Jondor (62,8 %), Buxoro (58,8 %), hamda Romitan (43,9 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,0 %) va Kogon shahar (21,9 %) sanoat ishlab

chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4590 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1253 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 27,3 % i) Buxoro shahriga, 590 tasi (12,8 % i) G'ijduvon tumaniga, 359 tasi (7,8 % i) Buxoro tumaniga, 356 tasi (7,8 % i) Kogon tumaniga, 317 tasi (6,9 % i) Romitan tumaniga, 316 tasi (6,9 % i) Jondor tumaniga 285 tasi (6,2 % i) to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, <i>birlikda</i>		Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, <i>birlikda</i>
9	Olot	128
10	Qorovulbozor	131
10	Kogon sh.	191
10	Qorako'l	203
19	Peshku	223
23	Vobkent	238
27	Shofirkon	285
18	Jondor	316
22	Romitan	317
19	Kogon	356
16	Buxoro	359
45	G'ijduvon	590
42	Buxoro sh.	1253

2020- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 270 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 45 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat

korxonalari hajmidagi ulushi (16,7 %) G'ijduvon tumanida, 42 tasi (15,6 %) Buxoro shahrida, 27 tasi (10,0 %) Shofirkon tumanida, 23 tasi (8,5 %) Vobkent tumanida, 22 tasi (8,2 %) Romitan tumanida tashkil etildi.